



OMMAVIY OCHIQ ONLAYN KURS KONTENTLARINI ADDIE MODELI ASOSIDA ISHLAB CHIQISH

Bagbekova L.K.

Nizomiy nomidagi TDPU v.b.dotsenti

Tayanch soʻzlar: taʼlim, axborot texnologiyalari, ommaviy ochiq onlayn kurs, videomaʼruza, kontenti, matn, rasm, video, audio, taqdimot, pedagogik dizayn, ADDIE, tahlil, loyixalash, rivojlantirish, baholash.

Ключевые слова: образование, информационные технологии, публичный открытый онлайн-курс, видеолекция, контент, текст, изображение, видео, аудио, презентация, педагогический дизайн, ADDIE, анализ, дизайн, разработка, оценка.

Key words: education, information technology, public open online course, video lecture, content, text, image, video, audio, presentation, instructional design, ADDIE, analysis, design, development, evaluation.

Respublikamizda boʻlayotgan turli sohalardagi islohotlar taʼlim tizimini ham chetlab oʻtmayapti. Sababi, uzluksiz taʼlim tizimiga toʻlaqonli axborot texnologiyalarini joriy etish, oʻqitishning zamonaviy usullarini qoʻllash va taʼlimning samaradorligini oshirishga katta eʼtibor qaratilganligi bugungi kunda oʻzining yuqori natijasini koʻrsatib kelmoqda. Taʼlim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish talaba va oʻqituvchining bilimlarini yanada mustahkamlashda hamda taʼlim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Taʼlim tizimida yuz berayotgan yuqori darajadagi oʻzgarishlar ommaviy ochiq onlayn kurs(OOOK)larni taʼlim jarayoniga joriy qilish bilan harakterlanadi. OOOK texnologiyasi videomaʼruzalar joylashtirilgan maxsus platformalardan foydalanishga asoslangan. OOOK talabalarga oʻzlari uchun qulay boʻlgan materialni oʻrganish tezligini tanlash va oʻrgangan materiallariga qaytish imkoniyatini beradi. Talabalar test yoki savol va topshiriqlar orqali nazorat qilinadi hamda teskari aloqa forumlar orqali taqdim etiladi.

Shuningdek, OOOKning asosiy kontenti video boʻlishi bilan birga uning tarkibiga turli koʻrinishdagi va turli formatdagi kontentlarni ham joylashtirish



mumkin. Bular, matn, rasm, video, audio, taqdimot, nazorat savollari va testlari, amaliy topshiriqlar to'plami, turli skrinkast va h.k. bo'lishi mumkin. OOOK yuqoridagi kontentlar uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi.

Matn – orqali nazariy ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.

Rasm – elementi orqali bob yoki mavzuga mos rasmlarni ko'rish mumkin.

Taqdimot – bu o'quv materialiga oid ko'rgazmali qo'llanma. Uning maqsadi o'quvchiga mavzuning mazmunini to'liq yoritishga yordam berish, o'quv materialining tuzilishini tushunish;

Skrinkast – bu kompyuter ekranidagi harakatlarni video shaklida ovozi sharhlar bilan birga yozib olish. Skrinkastda har qanday dastur yoki saytning interfeysi va imkoniyatlari bilan tanishtirish, muayyan vazifani bajarish tartibini ko'rsatish mumkin.

Video – yordamida mavzuga oid video darslarni ko'rish mumkin.

Video-kontent ommaviy ochiq onlayn kurslarning asosidir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, videoma'ruza inson psixologiyasi va fiziologiyasiga eng mos keladigan masofaviy ma'lumotlarni taqdim etish formatidir[3].

Videoma'ruza - bu o'rganilayotgan mavzu doirasida ko'rib chiqilgan muammolar, uni o'rganishning asosiy tamoyillari va yondashuvlari to'g'risida keng qamrovli bayonot. Bundan tashqari, o'quv video darsning maqsadi - o'quvchini materialni o'zlashtirishga qiziqtirish, o'rganilayotgan muammoning ahamiyati to'g'risida tushunchani rivojlantirish, shuningdek, o'quv materialining nima uchun shaxsan unga kerakligini tushunish. Videoma'ruzalarning bir qancha afzalliklari mavjud.

Birinchidan, video eshitish, ko'rish, lingvistik va vaziyatli kabi turli xil ko'rinishlarni sintez qiladi. Amalda, videoni tomosha qilish, tinglash yoki subtitrlar mavjud bo'lsa o'qish mumkin. Bu audiollar, vizuallar va kinestetiklarni individual o'qitish uchun asos yaratadi.

Ikkinchidan, nutq xabari, yuz ifodalari, imo-ishoralar, tana harakatlari, aloqa ishtirokchilarining shaxsiy, tashqi ko'rinishlari tinglash qobiliyati bilan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar bir vaqtning o'zida vizual ravishda qabul qilinadi.

Uchinchidan, video ko'proq (matn bilan solishtirganda) hissiy ta'sirga ega bo'lganligi uchun talabalar orasida fanga nisbatan ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, ularning g'ayratini oshiradi[5].

Videoma'ruzalar shaxsga yo'naltirilgan ta'limga hissa qo'shadi: talaba materialni o'zining o'rganish tezligiga muvofiq o'rganishi mumkin, agar kerak bo'lsa, muhim yoki noto'g'ri tushutilgan qismlarni qayta ko'rib chiqishi mumkin.




Ommaviy ochiq onlayn kurslar uchun mo'ljallangan yuqoridagi kabi kurs kontentlarini tayyorlashda pedagogik dizayn yondashuvi asosida to'g'ri tanlanishi lozim.

Pedagogik dizayn bu – ko'zlangan pedagogik natijalarga erishish uchun aniq pedagogik harakatlarga qaratilgan soha; kursning aniq mazmuni va belgilangan talabalarni hisobga olgan holda ularning bilim va ko'nikmalarida kutilgan o'zgarishlarni amalga oshirish uchun eng yaxshi pedagogik metodlar to'g'risida qaror qabul qilish jarayoni[4].

1-rasm. ADDIE modeli.

ОООК uchun yaratilgan raqamli o'quv kontentlarni pedagogik dizaynning ADDIE (Analysis; Design; Development; Implementation; Evaluation) modeli yordamida shakllantirish mumkin.



Analysis(tahlil) - shakllantirilayotgan biron bir o'quv kurs rivojlantirilishida kursning muhim hisoblangan elementlari belgilanadi, talaba ehtiyojlari inobatga olingan holda o'qituvchining vazifalari ko'rsatilib o'tiladi. O'quv kurs maqsadi aniqlanib shakllantiriladi, shu bilan birga, kurs auditoriyasi va ular bilan ishlash formatlari tizimli ravishda baholanadi. So'nggi bosqichda kutilgan natijalar ro'yxati tuziladi. O'quv kurs samaradorligini oshirish maqsadida bir nechta bosqichlarga ajratilgan holda vazifalarni aniq shakllantirishga yordam beradi. Tizimli ishlab chiqilgan maqsad va vazifalar onlayn o'quv kurs vositalari, interfaol elementlari bilan boyitilishi o'quv axborot materiallarini mukammal yaratilish imkonini taqdim etadi. Bunda o'quv kursning baholash mezonlarini aniq belgilab olish zarur. Onlayn kursdan kutilayotgan natijalarni aniqlashtirish orqali o'quv kursda yaratilayotgan topshiriqlar mazmuni, nazorat test savollari, yakuniy nazorat topshiriqlarni talabaga qanday shaklda taqdim etish jarayoni

tahlil qilinadi. O‘quv kurs maqsad va kutilayotgan natijalarni belgilab olinganidan so‘ng, onlayn o‘quv kursi uchun o‘quv axborot materiallarni shakllantirish vazifasi ko‘rib chiqiladi.

Design (loyixalash) – modelning bu bosqichida tahlil bosqichida nazarda tutilgan barcha xulosalarni hisobga olgan holda ta’lim tizimi uchun yaratilayotgan barcha o‘quv kurslarning materiali, ish rejasi hamda tuzilmasini ishlab chiqish, o‘quv kurs uchun tayyorlangan kursning asosiy interfeys dizayni, test savol topshiriqlar ko‘lami, baholash mezonlari kabi tarkibiy qismlari loyihalashtiriladi:

1. O‘quv vositani tanlash. Ilk vazifa maqsadli auditoriyaga mos o‘quv materiallarini, ta’lim shakllarini, talabaga o‘quv materialning mazmunli yetkazib berish uslublarini tahlil etish asosida amalga oshiriladi. Ikkinchi vazifa sifatida esa o‘quv kurs uchun mos axborot materiallarini o‘zlashtirish undagi vazifa topshiriqlarni bajarilishini ta’minlash maqsadida bilim va ko‘nikmalar aniqlashtirib olinadi.

2. O‘quv kurs ssenariysini yaratish. Ushbu parametrlarning asosiy tomoni o‘quv axborot materiallarini talabaga qanday shaklda taqdim etilishini loyihalash hamda tasdiqlash orqali o‘quv materialning har bir elementi o‘quv axborot ma’lumotlarining qay darajada o‘quv kurs uchun ishlab chiqilganini baholaydi.

3. O‘quv axborot material namunalari tayyorlash. Mazkur namunalorqali o‘quv kursda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni aniqlab, o‘quv kurs ssenariysiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga imkoniyat yaratiladi.

4. Kurs o‘quv materiallarini baholash va takomillashtirish vazifalariga muvofiqligi nuqtai nazaridan o‘quv kurs uchun tayyorlangan ma’ruza matnlari va boshqa o‘quv axborot materiallarini qayta ko‘rib chiqilishi bu bosqichidagi eng samarali modellashtirish orqali amalga oshiriladigan parametri hisoblanadi. Yaratilgan o‘quv kursni baholashda ko‘zga tashlanadigan muammo va yutuqlar tajribali pedagog o‘qituvchilar tarkibidan tashkil topgan guruh tomonidan aniqlanadi.

Development (Rivojlantirish) – kurs materiallarini ishlab chiqish. O‘quv materiallari va topshiriqlarni taqdim etish shakllari(matnli, video, test va h.k.) aniqlanadi va ishlab chiqiladi.

Bu bosqichda har qanday o‘quv kursni loyihalash jarayonida talabaga taqdim etilayotgan barcha turdagi o‘quv adabiyot ma’ruzalar kursning texnik tomonidan uzviy aloqa o‘rnatish orqali talabaga o‘quv axborotni yetkazish uslublari yordamida o‘quv kursning interfaol elementlarini taqdim qilish kabi sozlash jarayonlari amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘quv kurs tinglovchilariga turli mazmundagi topshiriqlar saralanadi, mustaqil mavzu va test savollari



orasidagi kontent interfeys aloqasi mustahkamlanadi. Bu esa onlayn kurs samaradorligiga erishish maqsadida test, savol topshiriq va amaliy laboratoriya ishlari natijalarini umumlashtirish uchun xizmat qiluvchi vositalarni aniqlab olishda zarur vazifa hisoblanadi.

Implementation (Amalga oshirish) - kurs materiallari o'quv platformasiga yuklanadi, bu esa tinglovchilarga ta'lim mazmuniga kirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'quv kursni joriy etilishida masofadan turib muayyan ta'lim jarayonlarini boshqarish orqali o'quv kursga tegishli axborot materiallari, ma'ruzalari, qo'shimcha adabiyotlari yuklangan holda talaba muayyan bir vaqtda masofadan turib, o'quv kursda mustaqil ta'lim olishi mumkin bo'ladi.

Evaluation (Baholash) - muayyan o'quv kursni joriy qilish to'g'risidagi ilk ma'lumotlar umumlashtirilgandan so'ng, taqdim etilgan o'quv kursning samaradorlik darajasi baholanadi. Pedagogik dizaynidagi birinchi Tahlil bosqichi oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda o'quv amaliyotida erishilgan natijalar bilan bog'lash lozim. Chunki o'quv kontent tahlili yordamida kurs yaratuvchi tomonidan o'quv kursga yuklangan axborot materiallari, ma'ruza matnlari tegishli baholash mezonlar asosida baholanadi[3].

Xulosa qilib aytganda, OOKlarda ta'lim berish va ta'lim olish juda qiziqarli, ijobiy tajriba, qulay format va rejimda ta'lim olish uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi. Ommaviy ochiq onlayn kurs kontentlaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarni kurs materiallari (ma'ruza mashg'uloti, amaliy va laboratoriya topshiriqlari)ni o'zlashtirishini, ta'lim oluvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini joriy testlar yordamida doimiy aniqlab borish orqali turli statistik tahlillar olish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Ta'lim jarayoniga ommaviy ochiq onlayn kurslarning joriy etilishi talabakasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashida, talabalarda mustaqil faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun ta'lim jarayonini tashkil etish, muloqat imkoniyatlarini shakllantirishda interaktiv o'qitish jarayonidan samarali foydalanish, talabalarda intellekt salohiyatni rivojlantirish orqali o'quv materiallarini o'zlashtirish va tizimlashtirishni egallashiga erishish, axborotlashgan jamiyatning faol a'zosi sifatida axborot madaniyatning rivojlanishiga, o'quv jarayonidagi xodisalarni kompyuter texnologiyalari vositalari yordamida amaliyotga tadbiiq etish, fan yangiliklaridan samarali foydalanishni o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni LEX.UZ/DOCS/4545884



2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 октярдаги “Ахборот технологиялари соҳасида таълим тизимини янада такомиллаштириш, илмий тадқиқотларни ривожлантириш ва уларни ИТ-индустрия билан интеграция қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4851- сонли қарори.

3. L.K.Bagbekova Ommaviy ochiq onlayn kurslar vositasida kompyuter grafikasini o'qitish metodikasini takomillashtirish//Diss.p.f.f.d.(PhD) Toshkent-2023

4. Z.A.Umarova Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish//Diss.p.f.f.d.(PhD) Toshkent-2021

5. Артикбаева Г.К., Аллаберганова Г.Б. Оммавий очик онлайн курсларида видео ресурсларнинг аҳамияти ва уларни тайёрлаш учун кўрсатмалар “Оммавий очик онлайн курсларини яратиш назарияси ва амалиёти” мавзусида Республика илмий-амалий онлайн интернет анжумани материаллари Урганч-2020. 99-101б

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ta'lim tizimiga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta'lim oluvchilar qamrovini kengaytirish maqsadida ommaviy ochiq onlayn kurslarni tashkil etish, mazkur kurslarni ishlab chiqish bosqichlari hamda kurs uchun talabalar bilim olishiga mos pedagogik dizaynga asoslangan holda turli raqamli kontentlar ishlab chiqish va uni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены внедрение новых инновационных технологий в систему образования, организация массовых открытых онлайн-курсов с целью расширения охвата обучающихся, этапы разработки этих курсов и разработка различного цифрового контента на основе педагогического дизайна и о повышении эффективности образования за счет его внедрения.

SUMMARY

This article discusses the introduction of new innovative technologies into the education system, the organization of massive open online courses in order to expand the reach of students, the stages of development of these courses and the development of various digital content based on pedagogical design and increasing the effectiveness of education through its implementation.